

ZAMONAVIY JAMIYAT VA UNING ISTIQBOLDAGI TARAQQIYOTI

Hakimov Akmaljon Mirzag'aniyevich,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining

Qo'qon filiali katta o'qituvchisi

hakimovakmal@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatning taraqqiyot istiqbollari ko'pincha atrof-muhitning holati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun atrof-muhitni asrash muammosi bevosita insoniyatning yashab qolish muammosiga borib taqaladi. Inson va tabiatning o'zaro bog'liqligi shunchalik keng va murakkabki, har qanday harakat istagan harakatsizlik kabi ushbu muhitning umumiy holatida o'z aksini topadi. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyat va uning istiqboldagi taraqqiyoti haqidagi turli ilmiy yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, taraqqiyot, noosfera, sivilizatsion yondashuv, formatsion yondashuv, ijtimoiy bilish, gnoseologik tahlil.

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ЕГО БУДУЩЕЕ РАЗВИТИЕ

Хакимов Акмалжон Мирзаганиевич,

старший преподаватель

Кокандского филиала Ташкентского государственного технического
университета имени Ислама Каримова

Аннотация: Перспективы развития современного общества зачастую неразрывно связаны с состоянием окружающей среды. Поэтому проблема защиты окружающей среды напрямую связана с проблемой выживания человечества. Взаимозависимость человека и природы настолько широка и сложна, что любое действие отражается на общем состоянии этой среды, как и желательное бездействие. В данной статье рассматриваются различные научные подходы к современному обществу и его будущему развитию.

Ключевые слова: общество, развитие, ноосфера, цивилизационный подход, формативный подход, социальное знание, гносеологический анализ.

MODERN SOCIETY AND ITS FUTURE DEVELOPMENT

Hakimov Akmaljon Mirzaganievich,

Senior lecturer, Kokand branch of the Tashkent State Technical University
named after Islam Karimov

Abstract. Development prospects of modern society are often inextricably linked with the state of the environment. Therefore, the problem of environmental protection is directly linked to the problem of human survival. The interdependence of man and nature is so wide and complex that any action is reflected in the general state of this environment, as well as desired inaction. This article examines various scientific approaches to modern society and its future development.

Key words: society, development, noosphere, civilizational approach, formative approach, social knowledge, epistemological analysis.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatdagi globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan tezkor va chuqur evolyusion o‘zgarishlar keyingi taraqqiyot tufayli ularni yanada o‘zgarib borishi mumkin bo‘lgan yo‘llarini nazariy o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Global muammolarning keskinlashuvi bilan kelib chiqqan umumsivilizatsion halokatning avj olish xavfi ham globallashuvning mazmuni va oqibatlari tahliliga bag‘ishlangan konsepsiyalarni rivojlantirishga ham turtki bermoqda.

Zamonaviy jamiyatning taraqqiyot istiqbollari haqida gap ketganda, ta’kidlash zarurki, uning taraqqiyoti ko‘pincha atrof-muhitning holati bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun atrof-muhitni asrash muammosi bevosita insoniyatning yashab qolish muammosiga borib taqaladi. Inson va tabiatning o‘zaro bog‘liqligi shunchalik keng va murakkabki, har qanday harakat istagan harakatsizlik kabi ushbu muhitning umumiy holatida o‘z aksini topadi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti va biosferaning evolyusiyasi shuning bilan birgalikda, muallif fikriga ko‘ra, ilmiy tafakkur va inson mehnatining ta’sirida “yangi holat – noosferaga” o‘tish zarurligini taqozo qiladi [1].

Noosfera deganda V.I. Vernadskiy “kishilarning texnik va madaniy faoliyatining hamda tabiatdagi tabiiy jarayonlarning birlashishi natijasida shakllanadigan Yerning yaxlit geologik qobig‘i”ni tushungan [2].

Aholining tinmay ko‘payib borayotganligi, xom-ashyolarning taqchillashib borayotganligi va atrof-muhitning ifloslanib borishi ham hozirgi jamiyatning istiqboldagi taraqqiy etish imkoniyatlari va kelajagini tahlil qilish zarurligi g‘aqida bosh qotrishga undamoqda. Ushbu muammolarning tahlili Rim klubi vakillarining faoliyatida ham o‘z aksini topgan. Masalan, o‘zining “O‘sinh chegaralari” deb nomlangan dastlabki ma’lumotida xulosaga kelishganki, “agar aholining hozirgi o‘sib borishi, tabiiy muhitning ifloslanishi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va xom-ashyo resurslarining isrof qilinishi tendensiyalari shunday davom etadigan bo‘lsa, unda yuz yil davomida dunyo o‘sishtan to‘xtaydi, aholi o‘sinhining kutilmagan va nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada pasayishi ro‘y beradi va ishlab chiqarish hajmi keskin kamayadi”.

XX asrning 60-yillarida hozirgi zamon jamiyatini bashorat qilish zaruriyatining ortib borishi *futurologiya* (lot. «Futurum» - kelajak, grech. «Aouos;» - ta'limot) deb ataladigan fanlararo yo'nalishning paydo bo'lishiga olib keldi. Ijtimoiy va tabiiyotshunoslik fanlarining ma'lumotlariga tayangan holda va insoniyatning va jamiyat hayotining ayrim sohalarining kelajakdagi taraqqiyotini oldindan ko'ra olishni maqsad qilib olgan holda futurologiya zamonaviy sivilizatsiyaning 4 ta asosiy muammolariga e'tiborni qaratdi: qurollanish poygasini o'rganish muammosi; aholining tabiiy o'sishi, atrof-muhit va xom-ashyo resurslari muammosi; jahon iqtisodiyoti taraqqiyoti; insoniyat taraqqiyotining ijtimoiy aspektlari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Futurologik bashoratlarning namunalaridan biri sifatida amerikalik futurolog E. Tofflarning jamiyat taraqqiyotining murakkablashuvi va tezlashuvi tufayli paydo bo'layotgan hozirgi zamon jamiyatidagi inqiroziy tendensiyalarning tahlili berilgan "Futuroshok" (1970) va "Ekospazm" (1975) asarlarini keltirish mumkin. Keyinroq yozilgan "Uchinchi to'lqin" (1980), "Zaminlar va bashoratlari" (1984), "Hokimiyatning qulashi" (1990) asarlari industrial jamiyat inqirozining xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan va ularda E. Toffler evolyusiyaning keyingi superindustrial davrida yangicha ijtimoiy tartiblarning o'rnatilishi masalalariga e'tibor qaratgan.

Zamonaviy jamiyatning istiqbolda taraqqiy etish mumkin bo'lgan imkoniyatlarini anglab yetishda mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari taqdim etilgan bilan birga butun insoniyatning yanada rivojlanishi prognozlarini ishlab chiqilayotgan Z. Bauman, I.M. Vallerstayn, V.I. Vernadskiy, E. Toffler, S. Xattington, A.L. Chijevskiy, F. Fukuyama va boshqa olimlarning ilmiy asarlari katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti istiqbollari yuqorida qayd etilgan fikrlar pozitsiyasidan turib tushuntirish O.M. Ayvanxov, A. Bezant, A. Beyli, A. Klizovskiy, D. Krishnamurti, L.I. Maslov, E.R. Muldashev, Ye. Rerix, D.P.

Samorodov, P. Uspenskiy, R. Shtayner va boshqalarning asarlarida ko'zga tashlanmoqda.

Hozirgi zamon jamiyatining taraqqiyot yo'llarini anglab yetishdagi qiyinchiliklar butunjahon tizimining kelajagini prognoz qilish va nazariy tadqiq etish uchun yangi paradigmalardan iborat Z. Baumanning "Joriy zamonaviylik", E. Tofflarning "Uchinchi to'lqin jamiyati", F. Fukuyamaning "Tarixning intihosi", S. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" kabi konsepsiyalar rivojlanishini tezlashtirdi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar hozirgi zamon jamiyatida Z. Baumanning "Joriy zamonaviylik" [3] g'oyasida aks etgan boshqacha tasavvurning paydo bo'lishiga olib keldi. "Sotsiologik fikrlash"(1996), "Individuallashgan jamiyat"(2002), "Globallashuv: inson va jamiyat uchu oqibatlar" (2003), "Erkinlik"(2006), "Joriy zamonaviylik"(2008) asarlarining muallifi bo'lgan Z. Bauman, zamonaviy jamiyatning istiqbollari haqida gapirarkan, hozirgi dunyoning suyultirilgan holda ekanligini ta'kidlaydi. Suyuqlik istagan shaklni berish mumkin bo'lgan substansiyadan iborat bo'lib, biroq bu shaklni saqlab turish qiyin: "suyuqliklar -deb ta'kidlaydi Z. Bauman, - osongina bir joydan boshqa joyga siljiydi. Ular oqadi, quyiladi, quriydi, sochiladi, tomchilaydi, ko'madi, ajraladi; qattiq jismlardan farqli ravishda ularni to'xtatish oson emas – ayrim to'siqlardan oshib o'tadi, ba'zilarini eritadi va uchinchilarini esa parchalab, sohib tashlaydi" [4].

"Sovuq urush" va SSSRning parchalanishidan keyin sodir bo'lgan geosiyosiy davrlar almashinuvi bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan zamonaviy jamiyatning yangi tuzilmasini bashorat qilish va nazariy tadqiq etishdan iborat yangi paradigmalar ko'rinishidagi ikki "mondializm" va "neoatlantizm" deb ataladigan geosiyosiy fikrlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

"Mondializm" (fransuzcha «Monde», lotincha «Mundi» - dunyo), yoki "yangi dunyo tuzilishi doktrinasi" o'z mohiyatiga ko'ra Jahon hokimiyatining o'rnatilishi, irqiy, diniy, etnik, milliy va madaniy chegaralarning barham topishi

bilan barcha davlatlar va xalqlarning yagona planetar tashkilotga birlashib ketishini anglatadi.

T.F. Yefremovaning rus tilining yangi lugʻatiga muvofiq jahon hokimiyati boshchiligida pirovard maqsadi milliylikdan ustun turadigan yagona siyosiy strukturani qurish boʻlgan mondializmning mohiyati milliy davlatlarning suvereniteti va mustaqilligini maqsadli tarzda buzishdan iborat [5].

“Mondializm“ siyosati toʻgʻrisida birinchi marta Fors koʻrfazidagi urush chogʻida AQSh prezidenti J. Bush tomonidan 1991 yilda gapirilgan edi. Mondializmning asosi Gʻarbning strategik dominantligi ostida yagona dunyo tizimiga oʻtishdan iborat boʻlgan.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining biz koʻrib chiqqan variantlari qatori ekologik halokat natijasida sodir boʻlishi mumkin boʻlgan dunyoning tugashi, uchinchi jahon urushi ehtimolligi, nanotexnologiyalar taraqqiyoti, jahon okeani tublarining oʻzlashtirilishi, yulduzlararo insoniy sivilizatsiyaning yaratilishi, kiborglarning yaratilishi va insoniyat evolyusiyasining boshqa futurologik ssenariylari kabi bashoratlar aks ettirilgan konsepsiyalar paydo boʻldi.

Zamonamizning ana shunday juda dolzarb masalalardan biri sifatida *uchinchi jahon urushining boshlanishi mumkinligi* masalasining yuzaga kelishidir. Xalqaro davlatlararo munosabatlardagi inqirozning borgan sari keskinlashib borayotganligi gipotetik global harbiy ixtilofning xavfi toʻgʻrisida gapirish imkonini beradi. Sovuq urush va qurollanish poygasining avj olishi urush xavfini sezilarli darajada oshirilishiga olib kelgan ommaviy qirgʻin qurollarini ishlab chiqarish sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirishga turtki boʻlgan sabablardan biri boʻldi.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasini rivojlantirishning yana bir istiqboli mexanik yoki elektron komponentlarga (mas., miya implantatlari, sunʼiy oʻpkalar va b.) ega boʻlgan *kiborglar* (qisqacha inglizchadan cybernetic organism - kibernetik organizm) *ni yaratish imkoniyatidir*. Ular qisman “protezlangan” insonlar emas, balki “turlicha kosmik muhitlarga moslashadigan sunʼiy ovqat hazm qilish regulatsiya tizimi bilan qisman rekonstruksiya qilingan insondan iborat boʻladi” [6]. Hozirgi davrda kiborglarni yaratish dolzarb masalalardan biridir. Misol uchun,

2011 yilning fevralida Rossiyada turli olimlarni birlashtirgan, sun'iy intellektni yaratish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqib taqdim etadigan "Rossiya 2045" deb atalgan strategik ijtimoiy harakat tashkil etildi.

Fan, ilg'or texnologiyalar taraqqiyoti zamonaviy sivilizatsiyaga nafaqat kosmosga chiqish, balki perspektivada unda odamlarni joylashtirish imkonining paydo bo'lishiga ham olib keldi [7].

Kosmosni o'zlashtirish va Quyosh tizimidagi sayyoralardan kelajakda insoniyatning hayot faoliyati uchun foydalanish hozirgi jamiyatni taraqqiy ettirish mumkin bo'lgan istiqbol deb tasavvur etish mumkin.

Biroq ta'kidlash kerakki, uzoqqa mo'ljallangan dastlabki prognozlarni tuzish jamiyatning borgan sari taraqqiyotining tezlashib borayotganligi tufayli hamma vaqt ham samarali chiqavermaydi. Fan, albatta, "u yoki bu taraqqiyot yo'lini tanlash oqibatlarini oldindan aytib berishi mumkin. Matematik modellardan va statistik metodlardan foydalanishni birlashtirganda bu prognozlar jamiyat borishi mumkin bo'lgan majburiy murosasozliklarni aniqlash imkonini beradi" [8]... va oxirgi paytda qonun ijodkorligi, boshqaruv va mablag'larni yo'naltirishlarda ijobiy siljishlar ko'zga tashlanib qoldi. Analitiklar tomonidan XX asr 30-40-yillarida foydalana boshlanilgan ishsizlik darajasi, budget taqchilligi va milliy yalpi mahsulot kabi tushunchalar bugunga kelib hamma joyda qo'llanilmoqda. Atrof-muhit, ijtimoiy xavfsizlikni himoya qilish, terrorizmdan himoyalash, yangi texnologiyalarni joriy etishning oqibatlarini oldindan ko'ra olish kabilar olimlar tomonidan "uzoqni ko'zlangan ishonchli prognozlarni" aytib berishlari uchun juda murakkab va bashorat qilish qiyin muammolardir.

XULOSA

Shunday qilib, hozirgi zamon jamiyati va uning taraqqiyot istiqbollari tahlilini yakunlar ekanmiz, biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olayotgan global muammolar keskinlashgan va dunyo tez o'zgarayotgan juda murakkab va ziddiyatli jarayonlardan iborat. Hozirgi zamon jamiyatining keyingi taraqqiyoti yo'llarini tushunishning qiyinligi yangicha dunyo tartibi va

tuzumini nazariy tadqiq etish va prognoz qilish uchun yangi paradigmalardan iborat konsepsiyalarni yaratish zarurligini taqozo qiladi.

2. Zamonaviy konsepsiyalarda hozirgi davrda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning– insoniyat taraqqiyotining va biosfera rivojlanishi, yangi ijtimoiy tuzum va tartiblarning evolyusiyaning superindustiral davriga o'tish oqibati sifatida qaror topishi, va transformatsiyasini tezlashtirishning yakuni sifatida, kosmik fazoni egallash va unga aholini ko'chirib joylashtirish, sun'iy tanani yaratish yordamida insoniyatni yerdagi o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirish yoxud insoniyatning keyingi taraqqiyoti haqidagi futurologik bashoratlar ilgari suriladi.

3. Hozirgi zamon jamiyatini yanada rivojlantirishning uzoqqa mo'ljallangan prognozlarini tuzishning qiyinligi insoniyat oldida turgan murakkab vazifalarni bajarish uchun turli mamlakatlarning birlashishi va foydalanilishi butun sayyora uchun fojiali bo'lishi mumkin bo'lgan texnologiyalarni yaratish bitimlari tuzish zarurligini keltirib chiqaradi.

Hozirgi zamon jamiyati keyingi taraqqiyotining uzoqqa mo'ljallangan prognozini tuzishdagi qiyinchiliklar insoniyat oldida turgan kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni hal etish va foydalanish oqibatlari butun sayyora uchun fojiali bo'lishi mumkin bo'lgan texnologiyalardan foydalanish to'g'risida bitimlarni tuzish uchun turli mamlakatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligiga olib kelganligi aniqlandi.

Shunday qilib, XXI asrga xos bo'lgan hozirgi zamon jamiyati taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan muammolarni batafsilroq o'rganish istiqboldagi tadqiqot va izlanishlarni tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

- 1.Вернадский В.И. Научная мысль как планетарное явление. / Сост. А.Ф. Яншина. - М.: Наука, 1991.-272 с.
- 2.Моисеев Н. Н. Человек и ноосфера. - М., 1990.-214с
- 3.Бауман З. Текучая современность. - Спб.: Питер, 2008. - 240 с.

4.Ефремова Т.Ф. Новый словарь русского языка. Толково-словообразовательный. - М.: Русский язык, 2000. - С. 371.

5.Лем С. Сумма технологий. - М.: Мир, 1968. - С. 683.

6.Циолковский К.Э. Вне Земли. Грезы о Земле и небе и эффекты всемирного тяготения. -М.: Луч, 2008.-С 311

7.Поппер С., Лемперт Р., Банкс С. Формирование будущего. // В мире науки. - Июль. - 2005. -№ 7.-С 112

8. Ҳакимов А [Modern approaches to civilization and sociological trends in the development of civil society](#) Экономика и социум, С-76-79